



**Materials of the international scientific-  
educational conference**

**“PROMOTION OF THE UZBEK LANGUAGE AND  
LITERATURE IN THE WORLD: RESULTS AND  
OBJECTIVES”**



26 October, 2021

ACADEMY OF SCIENCES OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN



Tashkent - 2021



**UZBEKISTAN ACADEMY OF SCIENCES  
INSTITUTE OF UZBEK LANGUAGE, LITERATURE AND FOLKLORE  
UZBEKISTAN WRITERS' UNION  
REPUBLICAN CENTER OF SPIRITUAL AND ENLIGHTENMENT  
MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION**

Materials of the international scientific-educational conference

**“PROMOTION OF THE UZBEK LANGUAGE AND LITERATURE  
IN THE WORLD: RESULTS AND OBJECTIVES”**

**October 26, 2021**

**TASHKENT – 2021**

## AFSONALARDA TUT OBRAZI BILAN BOG‘LIQ EPIK MOTIVLAR IFODASI

Gavhar Rustamova \*

*Annotatsiya.* Xalq og‘zaki ijodining epik namunalari, jumladan, afsonalarda tut obrazi faol ishtirok etadi. Ushbu maqolada ham o‘zbek afsonalaridagi tut obrazi bilan bog‘liq epik motivlar ifodasi xususida so‘z yuritilgan.

**Tayanch so‘zlar:** tut daraxti, afsona, motiv, ibtidoiy madaniyat, Xorut va Morut, Yakkatut, Urkut buva.

Jahon xalqlari folkloridagi obrazlar silsilasida tut o‘ziga xos o‘rin tutadi. Tut daraxti bilan bog‘liq inonchlarning genezisi xalqimizning islomgacha shakllangan e‘tiqodlariga borib taqaladi. Xususan, tut bilan bog‘liq hosildorlik inonchining ayrim elementlari qadimgi shomonlik an‘analari bosqichida ham yashab kelgan. Hosildorlik inonchlarida mevali daraxtlardan foydalanish tasodifiy emas. SHomon kasalligiga chalingan bemorlarni “Davolash” jarayonida davolovchi po‘rxon (parixon)lar kasal tanidagi ruhlarni quvish uchun alasdanda foydalanish jarayonida olovga tut daraxti novdalarini yoqishgan [Snetsarev G.P., 2018; 64].

Xalqimizda tut daraxti bilan bog‘liq afsonalar ko‘plab yaratilgan bo‘lib, ularning aksariyatida *tutning biror aziz avliyo hassasidan ko‘karib unib chiqishi, zum o‘tmay ulkan daraxtga aylanishi motivlari* etakchilik qiladi. Xususan, “Yakkatut buva” afsonasida ketirilishicha, bir kuni avliyolardan biri qabristonga kelib, “Qur‘on” tilovat qilish uchun tahorat olmoqchi bo‘libdi. Shundan avval u o‘z qo‘lidagi hassasini yerga sanchib, uning yonida tahorat qila boshlabdi. Tahorat olib bo‘lgan avliyo o‘zining hassasini olish uchun yuzlanadi. Qarasaki, hassa barg chiqarib, ko‘kara boshlagan emish. Buni ko‘rgan avliyo hayratga tushibdi va bir nafas jim qolibdi. Daraxt esa o‘sib, katta tut daraxtiga aylanibdi. Avliyo o‘z hassasining tut daraxtidan yasalganligini bilibdi. Shunday qilib,

---

\* Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

qabrstonada bitta tut daraxti paydo bo‘lgandan so‘ng u Yakkatut bobo qabrstoni deb atala boshlabdi.

Shuningdek, bu an‘naviy motivga Bahouddin Naqshband nomi bilan bog‘liq afsonalarda duch kelish mumkin. Unda aytilishicha, Bahouddin Naqshband ziyoratgohida saqlanayotgan katta tut yog‘ochi bir vaqtlar aziz avliyoning yerga suqib qo‘yilgan hassasidan unib chiqqan daraxt ekan.

Navoiy viloyatining Qiziltepa tumanida “Kuyik tut” degan avliyo joy bor. Ana shu joy nomining kelib chiqishi to‘g‘risidagi afsonada hikoya qilinishicha, Qoraxon eshon buva degan kishi daryodan qo‘lini yuvib turgan ekan, suv betida bir yog‘i kuyik kosov oqib kelayotganini ko‘rib qolibdi. Eshon buva kosovni suvdan olib daryo bo‘yiga suqib qo‘yibdi. Xudoning amri bilan kosov barglab, katta tut daraxti o‘sib chiqibdi. Lekin o‘sha daryoda oqib kelgan kosovning bir uchi kuyik bo‘lganligi sababli bu tut o‘sib turgan bo‘lsa-da, uning ichi kuyib, qop-qorayib ketibdi. Zamonlar o‘tib, karomat tufayli kosovdan o‘sib chiqqan bu tut daraxti ziyoratgohga aylanibdi.

*Daraxt va ruh (jon) motivi, xususan, biror iloha, payg‘ambar va avliyoning tutdan paydo bo‘lishi hamda tut ichiga berkinishi motivlari* ham ko‘plab o‘zbek xalq afsonalarida o‘rin egallagan. Bu borada biz uchun qiziqarlisi, musulmon sharqida keng tarqalgan osmondan tushgan farishtalar Xorut va Morut haqidagi (aslida, bu farishtalar zardushtiylik dinidagi Xaurvatat va Ameratat) afsonadir.

Afsonaning Xorazm variantiga qaraganda, aynan tut daraxtiga qizning tasviri o‘yilgan bo‘lib, u mo‘jiza bilan jonini qo‘lga kiritadi va farishtalarning gunohkor bo‘lishiga olib keladi. Farishtalar buning uchun abadiy quduqda o‘tirish jazosiga hukm qilinadilar. Afsonada ular suv, daraxt va abadiy hayot motivlariga aloqador ravishda tasvirlanadi. SHunisi qiziqki, boshqa versiyalardan farq qilib, bu erda qiz yulduzga aylanmaydi, yana tut tanasiga kirib yashirinadi. Taniqli elshunos N.Snetsarev ushbu afsonani etnograf D.Robertson tayanib, kofirlar (Nuriston) hosildorlik ma‘budasi Dizane haqidagi afsona bilan qiyoslaydi. Unda ma‘bud Sataram ko‘l o‘rtasidagi “daraxtga oshiq bo‘lib yonib ketadi”, daraxt esa ikkiga bo‘linib, ichiga Dizaneni oladi [Snetsarev G.P., 2018; 199].

Yana bir afsonada keltirilishicha, qadim zamonlarda azizlardan biri dam olib o‘tirgan ekanlar, birdan dushman bostirib kelib qolibdi. Aziz avliyo qarasalarki, hamma nobud bo‘ladigan. Shunda u kishi noiloj qochishga majbur bo‘libdilar. Bir to‘da dushman u kishining orqalaridan quvibdi. Avliyo qarasalarki, bekinadigan joy yo‘q, dushman esa yaqinlashib kelyapti. Shu payt oldilaridan tut daraxti chiqib qolibdi. Avliyo tutga iltijo qilibdi, tut ikkiga ajralibdi va u ana shu tutning ichiga kirib yashiribdi. U kishini quvlab kelayotgan dushmanlar tut daraxti yoniga kelganda izni yo‘qotib qo‘yib, qayoqqa borishni bilmay, hayron bo‘lib turishganida tutning ustiga qo‘nib turgan olashaqshaq:

– Ana, avliyo tutning orasiga kirib ketdi, ishonmasangizlar qarab ko‘ringlar, yaktaging bir uchi chiqib turibdi, – debdi.

Olomon qarasaki, haqiqatan ham yaktakning bir uchi chiqib turgan emish. Ular yaktak uchidan har qancha tortishmasin, avliyoni chiqarib ololmabdilar. Shundan keyin bitta arra olib kelib tutni yarim belidan arralay boshlabdilar. Kesilgan tut ag‘darilib tushibdi va orasidan qon chiqibdi. Shu-shu har doim tutni kessa tanasidan qizil suyuqlik chiqib turadigan bo‘libdi.

“Tut shirasi” nomli afsonaga ko‘ra, dushmanlaridan qochib borayotgan bir avliyo tut daraxti yoniga kelganida xudoga yolvoribdi. Shunda xudoning amri bilan tut yorilib, avliyo uning ichiga kirib ketgan ekan. Tut tanasidan gohida sizib chiqadigan qizg‘ish rangli suyuqlik-shira ana o‘sha avliyoning qonli ko‘z yoshlari deyiladi.

Shuningdek, *afsonalarda tut mevasining yilning istalgan faslida ham pishib yetilaverishi motivi* uchraydi. Asl ismi Hazrati Umar Subutiy bo‘lgan xalq orasida “Urkut buva” nomi bilan mashhur afsonada keltirilishicha, qish kunlaridan birida shu avliyoning oldiga do‘stlari mehmon bo‘lib kelishibdi. Ular kelayotganlarida “Hazratga bir karomat ko‘rsating deb aytamiz”, – deb maslahatlashibdilar. Hazratning eshiklari oldida katta tut daraxti bo‘lib, ular o‘sha tutni pishgan holatda ko‘rsating, deb aytmoqchi bo‘libdilar. Ular avliyoning ichiga kelib, kechasi bilan mehmon bo‘lishibdi va ertalab tashqariga chiqsalar, o‘sha katta tut daraxti oppoq bo‘lib pishib turgan, hatto g‘arq pishgan tutni chumchuqlar cho‘qiyotgan emish. Shunda mehmonlardan birining jahli chiqib,

chumchuqlarga qarab “Ha, qirilg‘aysizlar!” – deyishi bilan tut shoxlariga qo‘nib turgan chumchuqlarning hammasi birdaniga yerga tushib o‘lib qolibdi. Shundan keyin bu avliyoni “Qironchi bobo” deb ataydigan bo‘libdilar. Uning qabri hozirda Darg‘onota degan joyda ekan. Hazrati Umar Subutiy u kishiga qarab: “Bu ishni noto‘g‘ri qildingiz, endi qushlarni tiriltiring!” – debdi. Ammo Qironchi bobo qanchalik urinmasin, chumchuqlarni tiriltirishning uddasidan chiqolmabdi, oxiri bu ishni qilolmasligini tan olibdi. Shunda avliyoning o‘zi tut tagida o‘lib yotgan qushlarga qarab: “Qani turinglar!” – degan ekan, qushlarning hammasi tirilib uchib ketibdi. Shunda avliyoning do‘stlari “Qushlarni hurkitdingiz!” - deyishibdi va o‘shandan buyon bu avliyoning nomi “Urkut bobo” bo‘lib, u dafn etilgan qabriston ham shu nom bilan atala boshlabdi [Jo‘rayev M., Sattiyeva D., 2010; 48].

Bundan tashqari afsonalarda tut daraxtining tabiiy xususiyatlariga ham diqqat qaratiladi. “Tut daraxtining xosiyati” afsonasida hikoya qilinishicha, “Qadim zamonda, Surxon vohasi tomonda bir podshoh yashab o‘tgan ekan. Kunlarning birida podshoh me‘morlariga yangi erda o‘ziga saroy qurdirishni buyuribdi. Me‘morlar tez fursatda shohning amrini bajarishga kirishib ketibdilar. Oradan ko‘p o‘tmay saroy qurilishi yakuniga yetibdi, ammo biroz vaqtdan so‘ng kelib xabar olsalar, imorat poydevoridan nuray boshlaganmish. Shoh saroyini qayta qurishga farmon beribdi. Quruvchilar imoratni bu safar yana ham mustahkamroq qilib qurishibdi. Biroq, shu hol yana takrorlanibdi. Quruvchilar bu xabarni podshohga qanday yetkazishni bilmay qo‘rqib turganlarida, ularning huzuriga shu hududda istiqomat qiluvchi bir donishmand chol kelibdi va me‘morlarga saroyning hovlisiga tut ekishni hamda qurilishni boshlashdan oldin imorat atrofiga tut daraxti ko‘chatlarini o‘tqazish kerakligini aytibdi. Quruvchilar donishmand aytgandek qilishibdi. Saroy shohga ma‘qul bo‘libdi, bu safar vaqt o‘tsa hamki, saroyning poydevori nuramasdan, ko‘rinishiga zarar yetmabdi. Quruvchilar hodisani podshohga ham so‘zlab berishibdi, podshoh o‘sha donishmand cholni topib, huzuriga olib kelishlarini buyuribdi. Cholni topib kelishgach, shoh undan bu holning sababini so‘rabdi.

Olampanoh, siz saroy qurishni buyurgan joy qo‘riq yer bo‘lganligi bois, tuprog‘i sho‘r edi. Tut daraxtining esa ildizlari

mustahkam bo‘lib, aynan sho‘rni, va sizot suvlarni o‘ziga tortadi, – deb javob beribdi chol. Podshoh esa uning donishmandligiga tasannolar aytibdi. Hovlilar, imoratlar yaqinida tut ekish odati shundan saqlanib qolgan ekan” (Surxondaryo viloyati Uzun tumanida yashovchi Rustamov Shavkat Mengnazar o‘g‘li tilidan yozib olingan)

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazmuni tut daraxti bilan bog‘langan afsonalarda ko‘plab yaratilgan bo‘lib, ularning aksariyatida tutning biror aziz avliyo hassasidan ko‘karib unib chiqishi, daraxt va ruh (jon) motivi, xususan, biror iloha, payg‘ambar va avliyoning tutdan paydo bo‘lishi hamda tut ichiga berkinishi motivi, shuningdek, tut mevasining biror avliyo karomati bilan yilning istalgan faslida pishib etilishi motivlari uchraydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Жўраев М., Д.Саттиева. Ўзбек фольклорида ҳаёт дарахти. –Тошкент: Фан, 2010. – 63 б.
2. Ксенофонов Г.В. Легенды и рассказы о шаманах у якутов, бурят и тунгусов.– Иркутск. 1928. – С. 65.
3. Снецарев Г.П. Хоразмликларнинг муслмонликдан аввалги маросим ва урф-одатлари. – Урганч: УрДУ ноширлик бўлими, 2018. – 332 б.
4. Асотирлар ва ривоятлар. Тўплаб, нашрга тайёрловчилар ва сўзбоши муаллифлари: М.Муродов, М.Шайхова. 1-китоб. Тошкент: Ёш гвардия, 1990.

Rustamova G. Afsonalarda tut obrazi bilan bog‘liq epik motivlar ifodasi .....	<b>597</b>
Shomurodova S. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida do‘ppi obrazining badiiy talqini .....	<b>602</b>
Mexliyeva D. O‘zbek folklorida lof janri.....	<b>608</b>